MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARDA EKOLOGIYAGA OID TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHDA KREATIV YONDASHUVNI TAKOMILLASHTIRISH SHAKL, METOD VA VOSITALARI

Kurbanova Gullola Baxramovna
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti v.b.
gullolakurbanova077@gmail.com
Samaridinova Nigora Gulamdjanovna
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti
samarddinovanigora@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirish jarayonda kreativ yondashuv, bolalarning zaruriy bilim, amaliy ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarni rivojlantirish shakl, vosita va metodlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, ekologiya, global, tizim, ilm-fan, innovatsiya, hududiy-ekologik, kompazitsiya, kommunikativ, funktsiya.

Annotation: This article covers the issues of organizing and implementing the creative approach to the formation of ecological concepts in preschool children and the acquisition of theoretical knowledge, practical skills, skills and competencies.

Key words: preschool education, ecology, global, system, science, innovative, regional-ecological, composition, communicative, function, business, management

Bugungi kunda barqaror rivojlanish, global va hududiy-ekologik muammolarni bilish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarga e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga ekologik tushunchalarning asosiy manbalaridan biri o‘zbek xalqining ma’naviy qadriyatlari, tabiatni, atrof-muhitni va madaniy meroslarni asrab avaylash bilan bog‘liq qadriyatlarni himoya qilish, saqlash, ularni ko‘paytirish va kelajak avlodga yetkazish bilan bog‘liq bo‘lgan fazilatlar shakllanadi va ular takomillashtiriladi. Tabiatning rivojlanish qonuniyatlarini anglab yetgan holda o‘z mustaqil kasbiy faoliyatini tashkil etish, inson faoliyati ta’sirining yaqin va uzoq kelajakdagi oqibatlarini inobatga olish, texnik vositalardan oqilona va ratsional foydalanish, ekologik siyosat, tabiiy olam komponentlari, tabiiy va antropogen obyektlar, tabiiy kompleks, tabiiy ekologik tizim, ishlab chiqarish tizimi va ular mohiyati, tahdidlarni oldini olish shakl va metodlari, atrof-muhit va insonga ko‘rsatilgan ekologik zararni belgilash va hisoblash, ekologik audit, ekologik sug‘urta, ekologik xavfsizlik tizimini boshqarish kabi yo‘nalishlar bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malaka, axloq va tafakkurga ega bo‘lishlarini taqozo etadi.

Darhaqiqat, Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yoshlarimiz haqli ravishda mamlakatimiz kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmalariga olishga qodir bo‘lganligi, bugunimiz va ertamizni hal etuvchi kuchiga aylanib borayotganligi barchamizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi. Bu sohada olib borilayotgan keng miqyosli ishlarimizni, xususan, ta’lim-tarbiya bo‘yicha qabul qilingan umummilliy dasturlarimizni mantiqiy yakuniga yetkazishimiz zarur” .

Ekologik ta’limning mukammal tizimini ishlab chiqish va ta’lim tizimiga joriy etish lozim. Ekologik ta’lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa ya’ni umumta’limning boshlang‘ich bo‘g‘ini hisoblangan kichik maktab yoshidan yo‘lga qo‘yilsa, shunchalik ijobiy va samarali bo‘ladi. Oila, jamiyat, ta’lim-tarbiya muassasalari va boshqa sohalarda ekologik tafakkur, ekologik ong va ekologik madaniyat uzluksiz tarzda shakllantirilib borilishi zarur. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda tabiiy fanlarni o‘quvchilarga samarali o‘qitish ekologik poydevor sifatida o‘rnatilishini davr taqozo etmoqda.

Buning uchun har bir Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarida, eng avvalo, ekologik tafakkur, ekologik ta’lim-tarbiya va ekologik madaniyat tushunchalarini o‘quvchi yoshlarga singdira olishi lozim. Buning uchun hozirgi kunda tabiatga yetadigan antropogen ozorni kamaytirishda biolog, geograf, geolog, meterolog kabi kasb egalarining hamkorligi juda zarurdir. Bu munosabatlar mohiyatini kichik yoshdagi o‘quvchilar ongiga yetkaza olish, ularning tabiatga bo‘lgan munosabatini to‘g‘ri ravishda amalga oshira bilishga o‘rgatish ekologik ta’limning asosiy negizini tashkil qiladi. Ekologik bilimning ilmiy asoslari nazariy, amaliy bilimlar va mustaqil ishlar jarayonida tushuntiriladi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda ekologiyaga oid tushunchalarni kreativ yondashuv asosida takomillashtirishda dars muhim vosita hisoblanadi. Chunki o‘quvchilar o‘quv fanlarini o‘rganishda o‘zining ilmiy dunyoqarashini ma’lum darajada shakllantiradi. Mazkur jarayonda o‘qituvchi o‘z tafakkuri va faoliyati uyg‘unligi orqali darsning samaradorlik darajasiga erishadi. Tarbiyachilar bolalarlarning nazariy bilimi, amaliy ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini hisobga olgan holda o‘quv materialini tizimli bayon qilishda xilma-xil usul va uslublardan foydalanadi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativlik faoliyatini tashkil qilishda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar ham muhim

ahamiyatga ega bo‘lib, uning asosiy xususiyati-o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashdan iborat.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativ yondashuvni takomillashtirish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

1-bosqich. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativ yondashuvni takomillashtirishning psixologik va pedagogik jihatdan tahlil qilish.

2-bosqich. Birinchi bosqichda keltirilgan tahlildan kelib chiqib, ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativ yondashuvni takomillashtirish, boshlang‘ich sinflarda ekologik tarbiyaga oid tushunchalar hajmi va mazmunini belgilash. Tashxis asosida ekologik tarbiyaga oid tushunchalar maqsadini jamiyat manfaati nuqtai nazaridan aniqlash.

3-bosqich. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativ yondashuvni takomillashtirish bo‘yicha o‘quv reja, o‘quv yuklama va zaruriy vaqt me’yorini aniqlash.

4-bosqich. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda didaktik jarayonni amalga oshirishning shakl va uslublarini tanlash,ularga mos o‘qitish vositalarini aniqlash.

5-bosqich. Didaktik maqsadni amalga oshirishda Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarining qiziqishlarini hisobga olib, ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni 60 shakllantirishning aniq mavzu va mashg‘ulotlar bo‘yicha ishlanmalar tayyorlash va ularni amalga joriy qilish.

6-bosqich. Ta’lim maqsadidan kelib chiqib, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativ yondashuvni takomillash tirish bo‘yicha o‘quv topshiriqlari tizimini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy qilish.

7-bosqich. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirish bo‘yicha belgilangan didaktik materiallarini o‘zlashtirilishini hamda ularning bilim saviyalarini nazorat qilish.

8-bosqich. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativ yondashuvni takomillashtirish o‘quv-amaliy mashg‘ulotlar mazmunini ishlab chiqish hamda shu asosda dars va uy topshiriqlarini optimal rejalashtirish.

9-bosqich. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda ekologiyaga oid tushunchalarni modellashtirish va ularni pedagogik tajriba-sinovdan o‘tkazish.

10-bosqich. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativ yondashuvni takomillashtirish bo‘yicha tajriba-sinov natijalari va ularni tahlil qilish hamda ularga statistik - matematik ishlov berish.

11-bosqich. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishga doir olib borilgan pedagogik tajriba- sinov natijalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy qilish.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativ yondashuvni takomillashtirishga oid nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni egallashlariga imkoniyat yaratadi. Mazkur jarayonda maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativ yondashuvni takomillashtirish bilan birga o‘quvchilarda estetik, axloqiy, huquqiy va iqtisodiy anglash shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF - 6108-sonli farmoni.

2. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 apreldagi “Ekologiya atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5024-son farmoni.

3. Avezov Sh. Maktabda ekologik tarbiya. –T.: O‘qituvchi, 1992. - 62 b.

4. Alimov T.A., Rafikov A.A. Ekologik xatolik sabablari. -Toshkent: “O‘zbekiston”, 1991.- 70 b.

5. Axloq-odobga oid hadis namunalari. –T.: Fan, 1990. - 172 b.

6. Алимов А.Ф., Бульон В.В., Голубков С.М. Динамика структурно- функциональной организации экосистем континентальных водоемов //Фундаментальные основы управления биологическими ресурсами. - М.: Товарищество научных изданий КМК, 2005. - С. 241-253.